

Buxoro Oblastida Qishloq Xo'jaligi Sohasida Amalga Oshirilgan Islohotlar

Hayitov Jahongir Shodmonovich

Buxoro davlat universiteti dotsenti, t.f.f.d. (PhD)

Jo'rayev Isomiddin Ismoilovich

Zarmed universiteti, Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: O'zbekiston SSR hukumat rahbarlaridan biri N.A.Muhitdinov 1955-yil 2-3-sentiyabr Toshkentda bo'lib o'tgan «Ishlab chiqarish, sanoat va texnik progres istiqbollarning dolzarb vazifalari» mavzusida qilgan ma'ruzasida ixtisoslashtirish va kooperativlash borasida fikr bildirdi. Ushbu masalalar 1950-1980 yillardagi ishlab chiqarish muammolarini qamrab olgan. Maruzada agrar-sanoat ko'rinishidagi integratsiya emas balki, sanoat sohasidagi birlashma va komplekslar borasida gap boradi. O'zbekiston sanoat muassasalarida ixtisoslashuv va kooperativlash ishlari hali yetarlicha hal etilmagan, sanoat qurilishi rejalarini tuzishda bu masalaga yetarlicha e'tibor qaratilmagandi. Bunga esa ko'plab tashkilotlar tomonidan so'nggi daqiqalargacha ushbu iqtisodiy omil va ishlab chiqarishni tashkil etishning progressiv metodi e'tibordan chetda qolganligi sabab sifatida keltirilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston SSR, agrar-sanoat, ixtisoslashtirish va kooperativlash, texnika, markazlashtirish, s'yezd, Markaziy Komitet.

Kirish. O'tgan asrning so'nggi o'n yilligida O'zbekistonda yashovchi barcha millatlar taqdirida tub o'zgarishlar davri bo'ldi. Rossiya imperiyasi va sovet hokimiyati yillari davom etgan davrda mustabid asoratdan xalos bo'lish o'zbek xalqining jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egallash imkonini berdi. Istiqloq o'tmishni o'rganish, xolisona baholashga keng imkoniyatlar yaratdi. Ayni paytda, mustaqil O'zbekiston Respublikasida bir tomondan mustabid tuzumning uzoq yillar mobaynida to'planib qolgan asoratlarini bartaraf etish, ikkinchi tomondan esa, taraqqiyotning yangi bosqichida barcha sohalardagi mavjud muammolarni hal etishda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy-ma'rifiy sohalarda islohotlar amalga oshirishdan iborat muhim vazifalar turibdi.

Adabiyotlar sharhi. Bugungi kunda tarix fanida o'rganish zaruriyati mavjud mavzulardan biri – sovet hukmronligi davrida O'zbekistonning iqtisodiy qaramligining vujudga kelish sabablari, kommunistik partiya tomonidan shakllantirilgan tuzilmalar, ish usullari va shakllari, barcha respublikalarning bir-biriga ipsiz chambarchas bog'lab qo'yilganligi, umuman olganda, bu davrdagi muammolar, ziddiyatlar va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish qiyinchiliklarini o'rganishga alohida mas'uliyat bilan yondashish, voqealarni mukammal yoritish, biryoqlamalikdan xoli bo'lgan tarixiylik, vorisilylik va uzviylikka amal qilish vazifasini qo'yimoqda.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Qishloq xo'jaligini sanoat negiziga o'tkazish asosiy ishlarni kompleks mexanizatsiyalash, ishlab chiqarishni markazlashtirish hamda uning tashkiliy formalarini takomillashtirishni taqazo etadi. Korxonalarni markazlashtirish bilan birga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va uni iste'molchilarga yetkazib berishni ta'minlaydigan komplekslar vujudga keltirish muhim o'rin tutadi. Yordamchi xo'jaliklardan agrar-sanoat birlashmalari va komplekslariga o'tish qurilishimizning ob'yektiv mantiqi bo'lgan.

Bunday birlashmalarning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati shundaki, ular qishloq xo'jaligining unumdorligini va ko'rkamliginigina oshiribgina qolmay, shu bilan birga ishlab chiqarish sharoitini hamda qishloq xo'jaligi bilan sanoat xodimlarining turmush darajasini tenglashtirish uchun ob'ektiv shart-sharoit yaratdi: davlat sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalari hamda kolxozlarning xodimlari mehnatiga haq to'lash, ijtimoiy sug'urta va nafaqa ta'minoti shartlari, ishlab chiqarish estetikasi va xodimlarning malakasini oz bo'lsada oshishiga xizmat qilgan.

KPSS XXIV s'yezdida bashorat qilinganidek, kelgusida birlashmalar ijtimoiy ishlab chiqarishning xo'jalik hisobidagi asosiy zvenolariga aylanmadi. Ishlab chiqarishni markazlashtirishning yangi shakli va yuqori bosqichi bilan birlashmalar mamlakat xalq xo'jaligida bugun mavjud bo'lgan, asosiy zvenolar o'rnini egallamadi. Nihoyat birlashmalar paydo bo'lishi bilan butun mamlakat ekanomikasining tuzilishi o'zgarmadi, xo'jalik islohotlarini rivojlantirishning yanada yuksak bosqichi boshlanmadi.

KPSS Markaziy Komitetining "Mexanizatsiyalashgan kooperatsiya va agrosanoat integratsiyasi negizida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini ixtisoslashtirish va kontsentratsiyalashni yanada rivojlantirish to'g'risida"gi 1976 yil 28 mayda qabul qilingan qarorida keng kooperatsiyalash negizida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish va kontsentratsiyalash, uni zamonaviy industriya negiziga ko'chirish – sotsialistik qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirishning bosh yo'li, rivojlangan sotsializm sharoitida Lenincha kooperativ plan g'oyalari amalda ro'yobga chiqarishda yangi bosqich ekanligi ko'rsatib o'tilgan.

Partiya va davlat hozirgi agrar siyosat vazifalarini hal qilar ekanlar, agrosanoat kompleksining asosiy, markaziy bo'g'ini – qishloq xo'jaligi ekanligiga, uning undan buyon ham rivojlanib borishining asosiy poydevori kapital mablag'larni ko'paytirib borish ekanligiga tayanadi. 1965-1980 yillar ichida ekonomikaning ana shu tarmog'ini rivojlantirishga ishlarning butun kompleksi bo'yicha Sovet hokimiyatining undan oldingi barcha yillar mobaynidagiga qaraganada 4,1 barobar ko'proq mablag': 395,4 milliard so'm, ya'ni kapital mablag'lar umumiy summasining 80,5 pro senti sarflandi. Biz bundan buyon ham qishloqqa katta miqdorda moliyaviy va moddiy resurslar ajrataveramiz, bu tarmoqni industrial negizga o'tkazishda davom ettiraveramiz. Biroq, endilikda asosiy diqqat e'tibor kapital mablag'lardan olinadigan samaraga, qishloq xo'jaligi mahsuldorligini o'stirishga, uning agrosanoat kompleksi hamma tarmoqlari bilan a'loqasini chuqurlashtirish va takomillashtirishga qaratilgan. Bu 80-yillardagi agrar siyosatining muhim xususiyatlaridir.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi va sanoatni uyg'unlashtirish 1963-yildan boshlanib, o'sha yili bog'dorchilik - uzumchilik sovxozlari tizimida "Xalqobod" kombinati tashkil etildi. Keyinchalik U.Yusupov nomidagi agrar-sanoat birlashmasiga aylantirilgan. Yillar o'tgani sari kooperativlashtirish jarayoni kengaytirilib, chuqurlasha bordi. Shuningdek, tizimda ba'zi muammolar ham vujudga keldiki ularni bartaraf etmasdan turib uyushmalarni rivojlantirishning imkoni yo'q edi. Chunonchi O'zbekiston qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarishi tajribasi bu jarayonga to'sqinlik qilayotgan sabablarni aniqlashga yordam beradi. Jumladan:

- ✓ tashkiliy-xo'jalik tuzilishining takomillashmaganligi;
- ✓ moddiy texnik ba'zaning kamligi;
- ✓ AKS va ASB ishlab chiqarish tiplarini ilmiy asosda ishlab chiqilmagani;

Yana shu narsani ham qayd etib o'tish mumkin, agrar-sanoat asosida kooperativlashtirish - bu xalq xo'jaligi tarmoqlari darajasidagi sohalarni ham, shuningdek korxonalar darajasidagi sohalarni ham o'z ichiga olgan kompleks muammolardir.

Buxoro viloyatida 1960-1970 yillarda qishloq xo'jaligida ixtisoslashtirish va agrosanoat integratsiya jarayonlarini faol rivojlantirish, yaxlit agrosanoat kompleksining ajralmas bo'g'iniga aylantirish tashabbuslari kuchaytirildi. Bu davrda KPSSning "kuch – g'ayrati ilmiy, kompleks yondashishni kuchaytirishga, qishloq xo'jaligiga kapital mablag'lar sarfini ancha oshirishga hamda ulardan ko'proq samara olishga, uning mahsuldorligini o'stirishga, ekonomikaning mana shu tarmog'ida xo'jalik yuritish mexanizmlarini hamda uning agrosanoat kompleksi barcha bo'g'inlari bilan

aloqalarini takomillashtirishga qaratilgandir”. Agrar siyosatining ilgarigi bosqichlarida ushbu jarayon nazariy-mafkuraviy ta’sirlarga to’la tortilmagan edi. 1975 yil ob-havoning noqulay kelishiga qaramasdan birlashma sovxozlari davlatga sabzavot topshirish planini 106, kartoshka topshirish planini 104 % va poliz mahsulotlari topshirish planini 105 % bajargan. “Uzplodoovoshvinprom”ning sabzavotchilik-uzumchilik sovxozi har gektaridan 227 sentner sabzavot yetishtirgan. Toshkent sovxozida B.Prudnikov boshliq zvenosi 27 gektar maydonning har gektaridan 251 sentnerdan xilma-xil sabzavot mahsulotlari yetishtirilgan. “So’x” sovxozining Qambarov boshliq brigadasi esa 61 gektar yerning har gektaridan olingan kartoshka 223 sentnerni tashkil etgan edi.

Buxoro agrar-sanoat ishlab chiqarish birlashmasi 1976 yil SSSR Ministrlar Sovetini va Mevasabzavotchilik ministrligi qarorlari bilan tashkil topgan. Tuzilgan vaqtda Buxoro agrar-sanoat ishlab chiqarish birlashmasi Mevasabzavotchilik ministrligiga qaragan, ASK tuzilishi 1976 yilda:

Rahbariyat

Kadrlar bo’limi;

Hisobxona;

Reja bo’limi

Qishloq xo’jaligi

Dehqonchilik

Chorvachilik

Ushbu bo’limlar tuzilishi jihatidan davlat reja qo’mitasi talab va yo’riqnomasiga mos bo’lsada iqtisodiy samaradorligi past bo’lgan. Sohadagi qabul qilingan qarorlarning bajarilishi ustidan nazorat yetarli darajada o’rnatilmagan.

Xususan, ixtisoslashtirilgan «Galaosiy» sovxozida uzum hosildorligi bir necha yillar mobaynida gektar boshiga 128 sentnerni tashkil qildi, har sentner mahsulot uchun 1,6 kishi-kuni sarflangan. Butun Buxoro oblastida esa hosildorlik 7,4 barobar kam xarajatlar esa 14 barobar ortiq bo’lgan.

Buxoro oblasti Romitan rayonidagi «Oktyabr 50 yilligi» sovxozi sutchilik kompleksi hisoblanadi. Kompleks tashkil etilguniga qadar sovxozda 1450 bosh qoramol bo’lib, ular paxtachilik bilan shug’ullanadigan bo’limlarning 4 ta fermasida boqilgan. Sovhoz har yili davlatga 850 tonna sut va 100 tonnagacha go’sht topshirgan. Kompleks tashkil topganidan so’ng qoramollar keyingi ikki yil ichida 100 boshga kamaydi, ammo davlatga 388 tonna ko’p sut topshirilmoqda. Oldin har bosh sog’in sigirdan sovxoz bo’yicha o’rta hisobda 1500-1600 litr sut sog’ib olingan bo’lsa, bu yil 2180 kg ga yetkazish mo’ljallandi. Agrar-sanoat kompleksida asosiy e’tibor podalar tuzilishi va nasilni yaxshilash, mollarni turli to’yimli ozuqalar bilan ta’min etish muammolariga qaratilgan. Loyiha bo’yicha kompleksga 36 kishi xizmat ko’rsatishi zarur bo’lgan. Hisobchi iqtisodchi, katta zootexnik, brigadir, veterinariya vrachi va texnigi, o’simlendiruvchi, laboratoriya hisobchi va oziq tayyorlovchi ham kompleks xodimi hisoblangan. Keyingi uch vazifa xarakteriga ko’ra umuman ishlab chiqaruvchiga yaqin turadi. Unga 8 ta sut sog’uvchi, beshta mol boqar, uch traktorchi, ikki buzoq boqar, bitta turli ishlarni bajaruvchi ishchi va 2 ta sut tashuvchi shafyorni ham kiritish mumkin. Muammo kompleksda malakali kadrlar yetishmasligida, ayniqsa kompleks loyihasida injinerlik xizmati ko’zda tutilmagani hayratlanarli holat.

Shuni aytish kerakki qishloq xo’jaligini yuqori darajada rivojlantirishga erishishda boshqa faktorlar bilan bir qatorda O’zbekiston KP Markaziy Komiteti va respublika hukumati tomonidan partiyaning ishlab chiqarishni markazlashtirish va ixtisoslashtirish yo’lini amalga oshirish yuzasidan qabul qilingan tadbirlari katta rol o’ynaydi. Sovet Ittifoqi Kommunistik Partiyasining XXIV syezdiga KPSS Markaziy Komitetining hisobot dokladida o’rtoq Leonid Ilich Brejnev “Kelgusi yillarda qishloq xo’jalik ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, go’sht, sut va boshqa mahsulotlar yetishtirishda industrial metodlarni joriy qilish yanada rivojlantiriladi. Bu tabiiy holdir. Gap qishloq

xo'jaligimizning kelajagini belgilab beradigan proseslar to'g'risida borayotganini qayd etadi". Ushbu fikr ham yuqoridagi masalalarni asoslash uchun xizmat qiladi.

1984 yil 26 – 27 – mart kunlari Moskvada bo'lib o'tgan Butunittifoq iqtisodiy qurultoyida aynan O'zbekiston Respublikasining Buxoro viloyati iqtisodiyoti masalalari: tajriba va qayta qurish masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek Buxoro viloyatida qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash va xomashyo bazasini kengaytirish masalasi muhokama etiladi.

Yordamchi korxonalarining hozirgi rivojlanish darajasi oshib bordi. Respublika kolxozlari va sovxozlaridagi yordamchi korxonalarining shoxobchalari o'tgan va hozirgi besh yilliklar mobaynida sezilarli darajada o'sgan.

1985 yil yakunida viloyat aholisi 1,017 million kishini tashkil etib, viloyatda 89 xil millat va elat vakillari istiqomat qilardi. Viloyatda 10 ta tuman, 10 ta viloyat tarkibidagi shahar, 3 ta shahar posyolkalar, hamda 84 ta qishloq sovetlari mavjud edi. Buxoro viloyatida 80 ta ishlab chiqarish korxonasi ish olib borardi. Eng qattiq zarbani viloyatning yengil sanoat tarmog'i – paxta tozalash va oziq – ovqat sohasi boshidan kechirdi. 1985 yilda aholi uchun ishlab chiqarilgan mahsulot 422 million so'mni tashkil qildi. Ayniqsa yirik ishlab chiqarish korxonasi sanalgan Buxoro tekstil korxonasida ishlab chiqarilgan mahsulot 172 million so'mdan oshib ketdi. Jami qishloq xo'jalik mahsulotlari 413 million tonnani tashkil etdi. 1984 yilning noyabr oyi hisobiga ko'ra viloyatda 384 ming tonna paxta yetishtirildi."

Butun respublikada milliy daromadning o'rtacha yillik o'sishi pasayib, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan milliy daromad 1965 yildagidan 1986 yilga kelib 7 barobarga kamaydi. Buxoro viloyatida yuz bergan katta xato shundan iborat ediki, viloyat nafaqat respublika, balki butun SSSR davlati miqyosida qishloq xo'jalik sifat ko'rsatkichi bo'yicha yetakchi viloyat sanalsada, viloyatda faqatgina Markazning buyurtmasi hisobiga qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirilardi. "1985 – 1986 yillarda Buxoro, G'ijduvon, Shofirkon tumanlarida qoramol yetishtirish keskin kamayishini kuzatish mumkin. Qorako'l, Peshku, Vobkent tumanlarida sog'in sigirlar hisobidagina qoramolchilik sohasidagi ayrim nuqsonlar keskin ko'zga tashlanmasdi. 1985 yilning yanvaridan to avgust oyiga qadar viloyatning xo'jaliklararo tarmoqlarida jami 9275 tonna tirik vazndagi qoramollar yetishtirildi. Bu esa qabul qilingan yillik rejaning 62,2% ini tashkil etardi. Shuningdek sut yetishtirish 36235 tonna, ya'ni 68, 2 % foizni, 38735 ming dona tuxum, ya'ni rejaning 75,6% foizini tashkil etdi. Vobkent tumanida go'sht yetishtirishni 30 % ga, Sverdlov tumanida 20%, Romitan tumanida 17,5%, shuningdek, Buxoro shahrida 24 % ga keskin kamayib ketganini kuzatish mumkin.

Xalq xo'jaligi darajasidagi ASK (agrar-sanoat kompleksi)ning strukturasi ularni tashkil etish shartlari va faoliyati samaradorligini belgilab beradi, shahar va qishloqlarning ijtimoiy muammolari ana shu AKS va ASBlar darajasida hal qilindi. Ammo muammolarni hal qilish negizini ASK (agrar-sanoat komplekslari) hamda mustaqil komplekslar, jumladan paxtachilik kompleksi yaratib berdi. Shu munosabat bilan mazkur komplekslarning asosiy proporsiyalari va parametrlarini, tarmoqlar va tashkiliy xo'jalik tuzulishi parametrlarini ishlab chiqish zaruriyati yuzaga keldi. Qishloq xo'jaligi intensivlashgan sayin ixtisoslashtirishning asosiy yo'nalishlari tobora aniq ko'rina boshladi. Qishloq xo'jaligi va sanoat ishlab chiqarishini uyg'unlashtirish jarayoni bog'dorchilik-uzumchilik sovxozlari singari yuqori ixtisoslashgan xo'jaliklarda bunyod etilgani bilan xarakterlanadi.

Xulosa. Qishloq xo'jaligini sanoat negiziga o'tkazish asosiy ishlarni kompleks mexanizatsiyalash, ishlab chiqarishni markazlashtirish hamda uning tashkiliy formalarini takomillashtirishni taqazo etdi. Korxonalarini markazlashtirish bilan birga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va uni iste'molchilarga yetkazib berishni ta'minlaydigan komplekslar vujudga keltirish muhim o'rin tutdi. Bunday birlashmalarning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati shundaki, ular qishloq xo'jaligining unumdorligini va ko'rkamliginigina oshiribgina qolmay, shu bilan birga ishlab chiqarish sharoitini hamda qishloq xo'jaligi bilan sanoat xodimlarining turmush darajasini tenglashtirish uchun obyektiv shart-sharoit yaratadi: davlat sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalarini hamda kolxozlarning xodimlari mehnatiga haq to'lash, ijtimoiy sug'urta va nafaqa ta'minoti shartlari, ishlab chiqarish

estetikasi va xodimlarning malakasi oshishiga turtki bo'ldi, biroq ular yashash va mehnat sharoitlari yaxshilanmadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Муқсимов С. Қорақўл махсулотларини кўпайтириш ва таннархини арзонлаштириш. – Тошкент: Ўзбекистон, 1969. –Б.265
2. КПСС XXVI съезининг материлларидан, 62-63 бетлар.
3. Курбонов Ф., Ниёзов А. Коннимех (Бухоро область, “Коннимех” давлат наслсилик совхоз тарихи)/Ўзбекистон колхоз ва совхозлари таризи (Очерклар) 3-китоб. Тошкент.: Ўзбекистон. 1972. –Б. 115.
4. КПССнинг иқтисодий сиёсати: Ўқув қўлланмаси (Авт.: Абалкин Л.И, Белик Ю.А., Владимиров Б.Г ва бошқ.) –Т.: Ўзбекистон, 1982. –Б.259.
5. Народное хозяйство СССР г. Стат. Сб., Ташкент, Узбекистан, 1973.
6. Jo'rayev Isomiddin Ismoilovich, “1950-80 yillarda O'zbekistonda qishloq xo'jaligi tarmoqlarini ixtisoslashtirilishi tarixidan”. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti, 12/2024. –B.42-47.
7. Nasilloev Sunnat Shavkat o'g'li. “O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligi fanlarida aspirantura orqali ilmiy kadrlar tayyorlash muammo va yechimlari (1960-1970 yillar misolida)”, Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti, 12/2024. –B.47-51.